XALQ DEPUTATLARI YUNUSOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-4-021-14-206-K/24 Yunusobod tumani

2025-yil uchun Yunusobod tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga muvofiq, shuningdek, Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosarining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-2343-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Yunusobod tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **174 114 000,0 ming so‘m** va xarajatlari **174 114 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi, shuningdek, Yunusobod tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **685 000,0 ming so‘m** etib tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasi va qarorning 3-bandiga muvofiq:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar budjeti va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan solig‘i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Yunusobod tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 522 933,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.To‘laganov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Murotaliyev), tuman soliq inspeksiyasi (I.Kadirov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman soliq inspeksiyasi (I.Kadirov) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Yunusobod tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Darxanov)ga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.yunusobodtumani.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Yusupov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.To‘laganov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDUVALIYEV
BOXADIR
ABDULXAYEVICH

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-021-14-206-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**174 114 000,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 394 000,0
2	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	9 042 660,0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14 412 900,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	60 080 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 294 120,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	29 750 000,0
7	Aylanmadan olinadigan soliq	30 117 200,0
8	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	3 833 120,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 190 000,0

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-021-14-206-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Yunusobod tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mablag‘ miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**174 114 000,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**75 215 757,0**
	shundan:	
-	*"Mening maktabim"*	*2 588 063,0*
2	**Madaniyat bo‘limi** *(shu jumladan, bolalar musiqa va san’at maktablari)*	**10 971 256,0**
3	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	**7 387 045,0**
4	**Sport bo‘limi**	**10 229 551,0**
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 256 342,0**
6	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**1 979 706,0**
7	**Hokimiyat**	**38 772 789,0**
	shundan:	
-	*Ijtimoiy ko‘nikma markazlari*	*343 540,0*
-	*Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”*	*137 955,0*
-	*Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi*	*17 791 650,0*
-	*“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari*	*4 433 617,0*
-	*Zaxira jamg‘armasi*	*1 522 933,0*
8	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**854 709,0**
	shundan:	
-	*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari*	*190 238,0*
-	*Axborot-kutubxona markazlari*	*664 471,0*
9	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**26 446 845,0**

Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-021-14-206-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

T/r	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	
		Tuman budjetiga	Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga	
			MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Yunusobod tumani	20%	14%	13%	0%	15%	0%	12%	100%	100%